IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL ILMIY ELEKTRON JURNAL

UO'K: 330.322:338.2

INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI TA'MINLASHNING OBYEKTIV ZARURLIGI

Hamdamova Nilufar
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0000-4853-3955
hamdamova_nilufar@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada investitsion muhit tushunchasining mazmun-mohiyati, tarkibiy elementlari hamda unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning obyektiv zarurligi ilmiy asosda yoritib beriladi. Investitsion jozibadorlikni oshirishda makroiqtisodiy muvozanat va institutsional islohotlarni amalga oshirish, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay biznes muhiti yaratishning iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlashdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Investitsion muhitni baholash mezonlari hamda xalqaro reyting va indekslarning mamlakat imijiga ta'siri tahlil etiladi. Shu bilan birga, investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi roli ilmiy xulosalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy barqarorlik, investitsiya xavfsizligi, institutsional muhit, makroiqtisodiy omillar, risklarni boshqarish, xorijiy investitsiyalar.*

ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ

Хамдамова Нилуфар
Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. *В статье научно раскрывается содержание понятия инвестиционной среды, её структурные элементы, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на неё. Обосновывается объективная необходимость обеспечения инвестиционной привлекательности. Особое внимание уделяется роли макроэкономического баланса и институциональных реформ, созданию благоприятной деловой среды для иностранных и местных инвесторов в обеспечении устойчивых темпов экономического роста. Анализируются критерии оценки инвестиционной среды, влияние международных рейтингов и индексов на имидж страны. Кроме того, научно рассматривается роль повышения инвестиционной привлекательности в укреплении социально-экономической стабильности.*

Ключевые слова: *инвестиционная среда, инвестиционная привлекательность, экономическая стабильность, инвестиционная безопасность, институциональная среда, макроэкономические факторы, управление рисками, иностранные инвестиции.*

THE OBJECTIVE NECESSITY OF ENSURING THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT

Hamdamova Nilufar
Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article provides a scientific analysis of the concept of the investment environment, its structural components, and the internal and external factors influencing it. The objective necessity of ensuring investment attractiveness is substantiated. Particular emphasis is placed on the role of macroeconomic balance and institutional reforms, as well as the creation of a favorable business environment for both foreign and domestic investors, in ensuring sustainable economic growth. The criteria for assessing the investment environment and the impact of international ratings and indices on the country's image are analyzed. Furthermore, the role of enhancing investment attractiveness in strengthening socio-economic stability is scientifically examined.*

Keywords: *investment environment, investment attractiveness, economic stability, investment security, institutional environment, macroeconomic factors, risk management, foreign investments.*

Kirish.

Iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishning koʻlami, yoʻnalishlari va samaradorligi, bevosita, investitsiya muhitiga bogʻliqdir. Bugungi kunda respublikamizda oʻziga xos investitsiya muhiti yaratilgan. Biroq, resurslar bazasining zaifligi, mamlakatimizda bozor infratuzilmasining hali yaxshi rivojlanmaganligi, huquqiy bazaning mukammal va barqaror emasligi, axborot ta'minoti bazasining sustligi, amaliyotda ma'muriy aralashuv holatlarining hali ham toʻliq barham topib ulgurmaganligi va boshqalar sabab investitsiya muhitiga salbiy ta'sir koʻrsatib kelmoqda. Bu esa investitsiyalashga boʻlgan moyillikni soʻndiruvchi eng muhim omillardan sanaladi. Shu jihatdan ham Oʻzbekiston investitsiya muhitini muntazam ravishda qulaylashtirish, uning jozibadorligini oshirish, investitsiyalarning risklilik darajasini hisobga olish, baholash va aniqlash, muhitga salbiy ta'sir koʻrsatayotgan salbiy omillar ta'sirini pasaytirish yoki bartaraf etish yoʻllarini aniqlash hamda Investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning muhim moliyaviy masalalari eng muhim vazifalardandir.

Ayni paytda, Investitsion muhit eng asosiy masalalardan boʻlib qolmoqda. Chunki bu investorlarni qiziqtiradigan asosiy omillardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, Investitsion muhitga ta'rif berib oʻtishni lozim deb bilib, uni quyidagicha ta'rifini keltiramiz.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda toʻgʻridan- toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan boʻlsa-da, ayrim tizimli muammolar – infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ma'muriy toʻsiqlar, axborot shaffofligining pastligi va hududlar kesimidagi nomutanosibliklar – investitsiya jozibadorligiga salbiy ta'sir koʻrsatmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – Oʻzbekistonda investitsiya muhitining makro va mikro darajadagi omillarini tahlil qilish, investitsiyaviy jozibadorlik va investitsiya risklari oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlash hamda uni takomillashtirish boʻyicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Oʻzbekiston Respublikasi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida» gi qonuni investitsiyalar tushunchasini rasmiylashtirib, investorlarga huquqiy kafolatlar beradigan asosiy manbaa hisoblanmadi. Shuningdek, moddiy va nomoddiy boyliklarni investitsiya

ob'yekti sifatida belgilaydi va xavf asosida kapital kiritish tamoyilini belgilaydi. Tadqiqotda bu manba O'zbekiston investitsiya siyosatining huquqiy asosini tushuntirishda asosiy manba hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi 16-sonli qarori «O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» investitsion jarayonlarni boshqarish tizimini rivojlantirish va ularni iqtisodiy o'sishga bog'lash bo'yicha konseptual ahamiyatga ega (O'zbekiston Respublikasi VM qarori, 2023).

Mazkur qarorga binoan, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi investitsiya dasturini shakllantirish, uni xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasi hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali moliyalashtiriladigan loyihalar asosida takomillashtirish bo'yicha vakolatli organ sifatida belgilangan. Aksariyat hollarda, «Investitsion muhit» va «Investitsion iqlim» tushunchalari sinonimlar sifatida ishlatiladi. Bu xususda mualliflar G'ozibekov va Qoraliyevlar «Investitsion faoliyatni tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish» nomli kitobida shunday deydi: «Investitsion iqlim» tushunchasi iqtisodiyotda yangi emas, ammo, mustaqil O'zbekiston sharoitiga nisbatan ishlab chiqilmagan. Investitsion muhit juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi» (G'ozibekova va Qoraliyeva, 1993). Qulay Investitsion muhit yaratishning muhim tashkil etuvchilaridan biri huquqiy-me'yoriy baza bo'lib, u har bir salohiyatli investorning mulkiy manfaatlarini himoyalashi, kafolatlashi, shuningdek mamlakatdagi mavjud investitsiya mexanizmining tushunarli va aniq bo'lishini ta'minlashi lozim. Mahalliy va xorijiy manbalar tahliliga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Jumladan, A. Karimov o'z tadqiqotida hududiy va sektorlar bo'yicha investitsiya jozibadorligini aniqlash metodologiyasini taklif qilgan bo'lib, uning tahlillariga ko'ra, mamlakatning turli hududlari va iqtisodiy tarmoqlari investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan turlicha imkoniyat va resurslarga ega. Xudoyberdiyevning «O'zbekistonda investitsiya muhiti va risklar» mavzusidagi maqolasida O'zbekistonda investitsiya risklarini aniqlash va baholash mexanizmlarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish yo'llarini ko'rsatadi va mikroiqtisodiy darajadagi investitsiya muhitini baholashga asos bo'ladi. Rakhmonov – «Makro va mikroiqtisodiy investitsiya muhiti» nomli maqolasida investitsiya muhitining makro va mikro darajalardagi komponentlarini tushuntiradi va ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qiladi.

«Investitsion muhit - muayyan mamlakatga (yoki hududga) investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar mavjudligining ijobiy yoki salbiy tomonlarini anglatadi. Shu o'rinda investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy omillardan tashqari o'ziga bog'liq bo'lmagan kelgusida kutilishi mumkin bo'lgan barcha xarajatlar yig'indisini ham hisobga olishimiz lozim» (Investisiya muhiti xususida muallif tamonidan keltirildi.).

Tadqidot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda Investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning obyektiv zururligini tahlil qilishda tizimli, tahliliy va taqqoslama yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro investitsiyalar nazariyalari tashkil etdi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Statistika agentligi ma'lumotlari hamda Jahon banki va World Bank hisobotlaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida 2020–2025-yillar oralig'idagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xorijiy investitsiyalar hajmi, tarmoq va hududlar kesimidagi dinamikalar o'rganilib, investitsion jozibadorlikni belgilovchi asosiy omillar aniqlangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya va Investitsion muhit xususida mualliflar G'ozibekov va Qoraliyevlarning asarlarida keltirilgan fikrlari ularni aniq mohiyati va mazmunini ochib berganligini ta'kidlab o'tish lozim. Darhaqiqat, fikrimizcha investitsiya daromad yoki ijtimoiy samara keltiruvchi va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan ta'qiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar hisoblanishi bilan birga investorning o'zida mavjud bo'lmagan muayan mulkiy va intellektual boyliklarni jalb etish orqali daromad yoki ijtimoiy samara keltiradigan boyliklardir. Xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsiya muhiti modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vositadir. U orqali xorijiy investorga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'lish, xorijlik investorlarning xulq-atvorini har tomonlama anglash va mamlakatdagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu jarayonlarning barchasi respublikamizning boshqa davlatlar bilan dastlabki iqtisodiy munosabatlarini yo'lga qo'yish jarayonida chetdan kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy investitsiya ishtirokida amalga oshirilishi lozim bo'lgan loyiha va dasturlarni ishlab chiqishda nafaqat o'z manfaatlari bilan chegaralanmasdan investorning maqsad va imkoniyatlari bilan hisoblashish alohida e'tiborga loyiqdir.

1-jadval

Investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning obyektiv zarurligi

№	Asosiy omil / ko'rsatkich	Ta'sir yo'nalishi	O'zbekiston sharoitida mavjud holat	Zaruriy chora-tadbirlar / tavsiyalar
1	Siyosiy barqarorlik	Investorlar qarorlariga bevosita ta'sir qiladi	Siyosiy stabillik mavjud, lekin ayrim hududlarda iqtisodiy islohotlarni amalda qo'llash sekin	Siyosiy islohotlarni tezkor amalga oshirish, qonunchilikni izchil tatbiq etish
2	Huquqiy-me'yoriy baza	Investorlar mulkiy huquqlari va kafolatlarni baholaydi	Qonunlar mavjud, lekin ba'zi tartib va qoidalar hali noaniq	Qonunlarni aniqlashtirish, soddalashtirilgan litsenziya va ruxsatnoma tartiblarini joriy etish
3	Iqtisodiy barqarorlik	Investitsiya riskini kamaytiradi, kapital oqimini oshiradi	Inflyatsiya va valyuta siyosati barqaror, lekin kredit tizimi cheklovli	Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, moliya va kredit tizimini takomillashtirish
4	Investitsiya imtiyozlari	Investorlar uchun rag'bat va qulaylik yaratadi	Ba'zi soliq va moliyaviy imtiyozlar mavjud	Soliq yukini kamaytirish, ustuvor loyihalar uchun alohida imtiyozlar joriy etish
5	Ijtimoiy infratuzilma	Investitsiya loyihalarining amalga oshishini qo'llab-quvvatlaydi	Transport, kommunikatsiya va sanoat infratuzilmasi rivojlanmoqda, ammo yetarli emas	Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va modernizatsiya qilish
6	Axborot va konsultativ xizmatlar	Investorlarni xabardor qiladi va xavfni kamaytiradi	Axborot resurslari va maslahat xizmatlari cheklangan	Investitsiya portallari va bir deraza tizimlarini kengaytirish
7	Raqobatbardoshlik va bozor imkoniyatlari	Investorlarni jalb qiladi va daromadni oshiradi	Ichki bozor sig'imi va eksport imkoniyatlari mavjud, lekin diversifikatsiya past	Bozorlarni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish

Manba: *investisiya muhiti jozibadorligini ta'minlashning obyektiv zarurligi xususida muallif tamonidan keltirildi.*

Jadval O‘zbekiston investitsion muhitining asosiy omillari, ularning ta’siri va mavjud holatini tahlil qiladi hamda har bir omil bo‘yicha zarur chora-tadbirlar orqali investorlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratishning bugungi kundagi ahamiyati, shu orqali mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va sarmoyalarni jalb qilish zaruratini yoritgan.

Shu bilan birga, investitsiya muhiti murakkab tizim bo‘lib, uning jozibadorligini oshirish makro va mikroiqtisodiy darajalarda ko‘rib chiqiladi. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, mikroiqtisodiy darajada investorlar, korxonalar va boshqa iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Bu ikki daraja birgalikda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va sarmoyalarni jalb qilishning bugungi kundagi obyektiv zarurligini yoritadi. Makroiqtisodiyot darajasida yondashilganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalar shartlarini bajarish xorijiy mulkni milliylashtirish, turli masalalar bo‘yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtirok etish davlat boshqaruv tizimilarining mustahkamligi, siyosiy rahbariyatning muqarrarligi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi, iqtisodiy siyosatning mukammalligi, davlat apparatining ish samaradorligi, banklar tizimining takomillashuv darajasi, pul muomalasi va davlat byudjetining barqarorligi, davlatning ichki va tashqi qarzlari miqdori va boshqalar hal qiluvchi o‘rinda turadi. Investitsiya muhitiga kapitalni qabul qiluvchi mamlakatning qonunlarida aks ettirilgan to‘g‘ridan -to‘g‘ri xarajatlar va xorijiy firmalarining faoliyatini chegaralovchi yoki taqiqlovchi omillardan tashqari, to‘liq aniqlanmagan ba’zi qoidalar va muvofiqlashtirilmagan jarayonlarning mavjudligi salbiy ta’sir etadi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya muhiti bir tomondan investor-firmasi va ikkinchi tomondan xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo‘jalik sub’yektlari, ya’ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi ikki yoqlama munosabatlarni aks ettiradi. Bu darajada investitsiya iqlimi umumlashtirilgan baholar iqtisodiy, huquqiy va madaniy jabhalarda yaqqol ko‘rinadi. Makro va mikroiqtisodiyot darajalari birgalikda yagona investitsiya muhitini tashkil etadi va potensial investorlar hamda kapitalni qabul qiluvchi tomonlarning bo‘lajak munosabatlarini belgilab beradi.

Investitsiya muhiti ob’yekt kategoriyasi bo‘lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo‘lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Lekin hozirgi sharoitda investitsiya muhiti faqat davlat organlari ta’siri ostida shakllanmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda jahon tajribasidan, jumladan xorijiy investitsiya bilan tashkil etilib, yuksak iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishgan kompaniya va firmalar tajribasidan kengroq foydalanish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotining sektorlar kesimida xorijiy investitsiyalar eng ko‘p energetika va tabiiy resurslar, transport, qishloq xo‘jaligi hamda axborot texnologiyalari sohalariga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, investitsiya muhiti asosan davlat organlari ta’siri ostida shakllanmoqda, shuning uchun strategik chora-tadbirlar va jahon tajribasini hisobga olish zarur. Bu yondashuv milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatini kuchaytiradi.

2-jadval va sektor tahlilidan ko‘rinib turibdiki, energetika, transport, kimyo va axborot texnologiyalari sohalari O‘zbekistonda xorijiy sarmoyalarni eng ko‘p jalb qilgan yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, so‘nggi uch yil ichida IT va raqamli iqtisodiyot loyihalariga yo‘naltirilgan xorijiy kapital hajmining deyarli ikki baravar oshgani, mamlakat investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishdagi obyektiv zaruratni yaqqol ko‘rsatadi.

Shu o’rinda davlat hokimiyatining ta’sirchanligi investitsiya muhitini aniqlovchi omillardan biridir. Shundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma’lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta’kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me’yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o‘z ichiga oladi. Xorijiy

kapitalni qabul qilish tizimi investitsiya muhitining komponenti bo'lib xizmat qiladi va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi. Chunki u investitsiya muhitini o'zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonning xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon etsa, investitsiya muhiti kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o'sib borish vaziyatiga baho beradi.

2-jadval

O'zbekiston iqtisodiyotining sektorlar kesimida xorijiy investitsiyalarning tarkibi (2024-yil yakunlari) (Maxkamov, 2025)

№	Tarmoq nomi	FDI hajmi (mlrd $)	Ulushi (%)	O'sish (2020–2024)
1	Energetika va tabiiy resurslar	3,5	29,4	+68%
2	Kimyo va neft-kimyo sanoati	2,1	17,6	+55%
3	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati	1,4	11,8	+70%
4	Transport va logistika	1,6	13,2	+80%
5	Farmatsevtika va biotexnologiya	0,8	6,4	+45%
6	Axborot texnologiyalari va xizmatlar	0,9	7,6	+92%
7	Qurilish va ko'chmas mulk	0,7	5,9	+37%

«Agar investitsiyalarni jalb qilish yoki targ'ib qilish haqida gapiradigan bo'lsak, bu jarayonni qanday amalga oshirish masalasi yuzaga keladi: ustuvor loyihalar hisobiga, investorlar uchun ayrim imtiyozlar berish orqali yoki barcha uchun teng qulay shart-sharoitlar yaratish orqali. Bu savol ayniqsa dolzarb, chunki birinchi navbatda, ayrim imtiyozlar va maxsus shart-sharoitlarni taqdim etish osonroq va ulardan tezroq natija olish mumkin. Ushbu amaliyot biz uchun ancha tipik hisoblanadi.» (Imomov, 2025). Ushbu holat investorlar uchun ayrim imtiyozlarni qo'llash zaruratini taqazo etadi, masalan, soliq kodeksida nazarda tutilgan investitsiya soliq krediti. Biroq, odatda, investitsiya shart-sharoitlarini umumiy darajada yaxshilash uchun soliq imtiyozlari o'rniga umumiy soliq yukini kamaytirish ko'proq samarali hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Xalqaro amaliyot tajribasi va O'zbekiston sharoitining tahlili shuni ko'rsatadiki, Investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning obyektiv zarurligi kundan kunga ortib bormoqda Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror bir korxona investitsiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski darajasi nuqtai nazaridan baholanishini ko'zda tutadi. Investitsiyaviy jozibadorlik investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, investitsiya riski darajasini aniqlash mumkin. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga, bevosita, to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Investitsiya muhiti tabiiy shart-sharoitlar, foydali qazilmalar zahiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi, tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, valyuta siyosati, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning yaratilganligi kabi omillar orqali belgilanadi.

Investitsiya tushunchasini yanada keng talqin qiladigan bo'lsak, sarmoyani kelgusida ko'paytirish maqsadini o'z ichiga olish bilan birga sarmoya o'sishi ta'minlashdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunda investitsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: «investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy

va boshqa faoliyat turlari ob'yektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlardir.

Investitsion muhiti tushunchasi investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassi bo'lib, investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafko'rasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat berilishi bilan alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga qulay Investitsion muhit yaratishning muhim tashkil etuvchilaridan biri huquqiy- me'yoriy baza bo'lib, u har bir salohiyatli investorning mulkiy manfaatlarini himoyalashi, kafolatlashi, shuningdek mamlakatdagi mavjud investitsiya mexanizmining tushunarli va aniq bo'lishini ta'minlashi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

Amonboyev, A. (2025). Investment Policy, Small Business Development, and Financial Stability in Uzbekistan. TLEP – International Journal of Multidiscipline.

Bektemirov A.B., Ruzibayeva N.X., Azimova R.I. (2020) Investitsiya va innovatsiyalar.

Berk, J., & DeMarzo, P. (2022). Corporate Finance. 6th ed. Boston: Pearson Education.

Davitova, S. (2024). Uzbekistan on the Path to Improving the Investment Climate. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 104–108.

Elmuratov, O. (2024). O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot.

G'ozibekov, D.G'., & Qoraliyev, T.M. (2018). Investitsion faoliyatni tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. Toshkent: Iqbol.

Imomov, X. H. (2025). Improving the Investment Climate in Uzbekistan: Some Important Issues. World Economics and Finance Bulletin, Vol. 53, 12–15.

Jumaniyazov, I. T., & Aminova, N. U. (2025). Foreign Direct Investment in Uzbekistan: Issues and Prospects for Attraction. Global Economic Review.

Karimjanov, S. U. (2025). Investments in the economy of Uzbekistan: macroeconomic conditions, investment climate and priority sectors. UIK.

Maxmudov N.M., Avazov N.R. (2019) O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari.

O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2019, 25-dekabr). Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida, № 342. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Huquqiy axborot.

Rasulov, M.R., Ergashev, T.I. (2020). Investitsiyalarni boshqarish. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.

Saidova, S. A. (2022). Challenges and Opportunities for Improving the Investment Climate in Uzbekistan. Educational Research in Universal Sciences.

Tuxliyev, B. K. (2023). Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot.

Umarova, Z. T. (2024). Investment Climate and Its Influence on the Development of Entrepreneurship in Uzbekistan. International Journal of Southern Economic Light.

UNCTAD. (2022). World Investment Report 2022: International Production Beyond the Pandemic. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development.

Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. (2020) Xorijiy investitsiyalar – Toshkent.

World Bank. (2022). Doing Business Report 2022. Washington, DC: World Bank Group.

Xuramov, Z. (2025). O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash muammolari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot.